



ELEKTRON TIJORATDA SHARTNOMALARNING TUZILISHI VA AMALGA OSHIRILISHI MASALALARI

Adizova Nargiza Parda qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola raqamli davrdagi savdoning muhim yoʻnalishi boʻlgan elektron tijorat va uning asosiy huquqiy vositasi hisoblangan elektron shartnomalarga bagʻishlangan. Maqolada elektron tijoratning anʼanaviy savdodan farqlari, Oʻzbekiston Respublikasining "Elektron tijorat toʻgʻrisida"gi qonunida berilgan taʼrif hamda olimlar tomonidan ilgari surilgan turli yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, unda elektron shartnomalarning huquqiy asosi, ularning tuzilishi, oferta va aksept tushunchalari batafsil yoritilgan. Elektron imzolarning huquqiy kuchi, shartnoma tuzish vaqti va joyini aniqlash, isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish kabi elektron tijoratda yuzaga keladigan asosiy huquqiy muammolar atroflicha muhokama qilinadi. Maqola soʻngida bu kabi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ilgari suriladi, jumladan, elektron imzolash mexanizmlarini kengaytirish va "boʻsing-qabul qiling" kabi shartnoma turlarini qonuniy tan olish zarurati koʻrsatib oʻtiladi.

Kalit soʻzlar: elektron tijorat, elektron shartnoma, oferta, aksept, elektron raqamli imzo, elektron savdo maydonchalari.

Abstract: This article is devoted to electronic commerce, an important direction of trade in the digital era, and electronic contracts, which are its main legal instrument. The



article analyzes the differences between electronic commerce and traditional trade, the definition given in the Law of the Republic of Uzbekistan "On Electronic Commerce", and various approaches put forward by scholars. It also covers in detail the legal basis of electronic contracts, their structure, the concepts of offer and acceptance. The main legal problems arising in electronic commerce, such as the legal force of electronic signatures, determining the time and place of conclusion of the contract, and protecting consumer rights, are discussed in detail. At the end of the article, proposals are put forward to eliminate such problems, including the need to expand electronic signature mechanisms and legally recognize types of contracts such as "click-to-accept".

Keywords: e-commerce, electronic contract, offer, acceptance, electronic digital signature, electronic trading platforms.

An'anaviy tijoratda shaxslar tadbirkorlik faoliyati doirasida tovar, ish va xizmatlar oldi-sotdisini yuzma-yuz ko'rishgan holda amalga oshirsa, bugungi raqamlashtirilgan jamiyatda bunday savdolar elektron platformalar orqali amalga oshiriladi. Elektron tijoratga turlicha ta'riflar mavjud. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunining 3-moddasida quyidagicha ta'rif beriladi: elektron tijorat — tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tadbirkorlik faoliyati doirasida axborot tizimlaridan foydalangan holda elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan oldi-sotdisi¹. Ushbu ta'rifga ko'ra, elektron tijoratning an'anaviy tijoratdan ajrtib turuvchi farq shartnomalarning "axborot tizimlaridan foydalangan holda elektron savdo maydonchasi orqali" tuzilishidir. Bu ta'rifda aynan qaysi axborot tizmlari va elektron savdo maydonchalari haqida so'z ketganligini II bobda batafsil tahlil qilamiz. Elektron tijoratga olimlar tomonidan berilgan ta'riflarga e'tibor qaratsak, L.A.Bragin tahriri ostidagi

¹ O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-yil., 03/22/792/0870-son.



o‘quv qo‘llanmada “Elektron tijorat – har qanday biznes sohasida axborot kommunikatsiya texnologiyalari hamda tizimlari orqali amalga oshiriladigan tijorat faoliyati”, - deb ta’rif berilgan. Rus olimi A.A.Kopachevning ta’kidlashicha, “elektron tijorat, bu – nafaqat savdo sotiq, balki eng ilg‘or axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, iqtisodiy va moliyaviy tomondan firmaning ma’lum bir yutuqlarga erishishini ta’minlaydigan biznes operatsiyalaridir”². A.V. Medvedevaning fikricha, “elektron tijorat kompyuter tizimlari va aloqa kanallari orqali mahsulotni ishlab chiqarish, sotish, tovarlar va xizmatlarni taqsimlashdan iborat bo‘lgan biznesning bir turidir”³. Bizningcha, elektron tijoratga berilgan ta’riflar orasida eng sodda va umume’tirof etiladigan ta’rif sifatida Braginning ta’rifini keltirish mumkin. Ushbu ta’rif elektron tijoratning umumiy mazmun-mohiyatini ochib beradi va tijorat, ya’ni savdo-sodiq qilish ma’nosidan kelib chiqadi. Elektron tijoratga kompleks nuqtayi nazar bilan qaralganda, A.A.Kopachev va A.V. Medvedevaning ta’riflarida elektron tijoratni biznesni kengaytirishga ta’siri hamda nafaqat savdo-sotiq balki tovarni ishlab chiqarishdan tortib, iste’molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan jarayonlarga ta’siri keltirib o‘tiladi.

Elektron tijorat jarayonida elektron shartnomalar asosiy huquqiy vosita sifatida xizmat qilib, tomonlar o‘rtasidagi savdo bitimlarini tezkor, ishonchli va huquqiy jihatdan kafolatlangan tarzda amalga oshirish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-moddasida belgilanishicha, shartnoma taraflarning kelishuviga ko‘ra tuziladigan va taraflarning huquq va fuqarolik huquq va majburiyatlarini vujudga keltiradigan, o‘zgartiradigan va bekor qiladigan kelishuvidir.

Elektron tijorat doirasida tuziladigan shartnomalarning ham mazmun mohiyati an’anaviy shartnomalarga o‘xshaydi va tartibga soladigan qonunchilik normalari ham bir

² Копачев А.А. “Электронная коммерция как фактор инновационного развития деятельности предприятия, Автореф.” – Санкт-Петербург, 2009. – С.6.

³ Медведева В.А. “Электронная коммерция предпринимательской деятельности”. Автореф дисс... - Москва, 2004.- С.10.



xil. Ya'ni, har ikkala turdagi shartnomalarda ham tomonlarning huquq va majburiyatlari, shartnoma predmeti, uning bajarilish muddati, narxi, javobgarlik masalalari va nizolarni hal etish tartibi belgilab qo'yiladi. Ushbu elementlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun, "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonun, hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Elektron shartnomalar tuzishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Bunda shartnoma matni elektron hujjat shaklida bo'lib, tomonlar o'zaro rozilikni elektron raqamli imzo yoki boshqa identifikatsiyalovchi vositalar orqali bildiradilar. Bu esa an'anaviy shakldagi yozma shartnomalar kabi yuridik kuchga ega bo'ladi. Shuningdek, elektron shartnomalar tezkorlik, qulaylik va xarajatlarni kamaytirish jihatlaridan ustunlikka ega. Biroq ularni tuzish va bajarishda axborot xavfsizligi, maxfiylik, firibgarlikning oldini olish kabi qo'shimcha talablar ham yuzaga keladi. Shu sababli, elektron tijorat subyektlari texnik va yuridik jihatdan yetarli darajada tayyor bo'lishlari zarur.

Bundan tashqari elektron tijorat qoidalarini va shartnoma tuzishning umumiy talablarini belgilovchi alohida qonunchilik mavjud. Jumladan, "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun va Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi "Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 185-son qarori elektron tijoratni amalga oshirish qoidalarini belgilaydi.

Elektron shartnoma tuzish jarayonida oferta (taklif) va aksept (rozilik bildirishi) klassik fuqarolik-huquqiy tamoyillarga asoslanadi, ammo bu jarayon raqamli axborot tizimlari orqali amalga oshiriladi. Elektron shartnoma nima? elektron shartnoma — tovarlar (ishlar, xizmatlar) oldi-sotdisi uchun axborot tizimlaridan foydalangan holda sotuvchi va xaridor o'rtasida tuziladigan shartnoma. Bir shaxsga, bir nechta aniq shaxslarga yoki shaxslarning nomuayyan doirasiga yo'naltirilgan, undan taklif bildirayotgan shaxsning (oferentning) taklifda ko'rsatilgan shartlarda kim javob bersa u bilan shartnoma tuzishga bo'lgan irodasi bilinadigan shartnomaning barcha mavjud shartlari mavjud bo'lgan taklif



oferta (taklif) deyiladi ba oferta yo'llangan shaxsning uning qabul qilinganligi to'g'risidagi javobi esa aksept (rozilik bildirishi) deyiladi. Shartnoma oferta va akseptdan iborat bo'ladi. Shartnoma, agar shartnomada o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, oferta yuborgan taraf tomonidan boshqa taraf yuborgan aksept olingan paytdan boshlab tuzilgan deb e'tirof etiladi.

Elektron tijorat (e-commerce) jadal rivojlanayotgan soha bo'lsa-da, unda shartnoma tuzish jarayonida bir qator huquqiy muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bu muammolar asosan an'anaviy shartnomalardan farqli o'laroq, elektron muhitning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Masalan, elektron shartnomalar ko'pincha elektron imzo yoki uning analoglari (masalan, bir martalik kodlar, foydalanuvchi nomi va parol) yordamida tasdiqlanadi. Bu imzolarning qonuniy kuchga egaligi va ularning haqiqiyligini tasdiqlashda turli xil muammolar yuzaga kelishi mumkin, ayniqsa xalqaro tranzaksiyalarda. Turli mamlakatlarda elektron imzolarga bo'lgan talablar turlicha. Ikkinchi masala, shartnoma tuzish vaqti va joyini aniqlashdagi muammolar. An'anaviy shartnomalardan farqli o'laroq, elektron shartnoma qachon va qayerda tuzilganligini aniqlash qiyin bo'lishi mumkin, bu esa yurisdiksiya va amal qiladigan qonunni belgilashda muammolarni keltirib chiqaradi. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq muammolar ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, elektron tijoratda mahsulotlar va xizmatlar haqida noto'g'ri yoki chalg'ituvchi ma'lumotlar berilishi mumkin, bu esa iste'molchilarning huquqlarini buzilishiga olib keladi. Bundan tashqari an'anaviy do'konlardan farqli o'laroq, elektron tijoratda sotib olingan tovarlarni qaytarish yoki almashtirish jarayoni ko'pincha murakkab bo'ladi⁴. Bu boradagi aniq qoidalar va shartlar bo'lmasa, iste'molchilarning huquqiy himoyasi ta'minlanmaydi.

⁴ Solove, D. (2018). The Digital Person and the Future of Privacy Law. California Law Review, 106(6), 1373-1430.



Elektron tijorat shartnomalarining ofertasiga alohida qoidalar belgilangan bo‘lib, elektron oferta elektron hujjat shaklida bo‘lib, quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi lozim: ofertani yuborgan shaxsning nomini (o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning familiyasini, ismini, otasining ismini); ofertani yuborgan shaxsning pochta va elektron manzilini, telefon raqamini; qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni (litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning raqamini, amal qilish muddatini, faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalashni yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berishni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organning nomini); shartnomani tuzish tartibini, shuningdek akseptni yuborish va chaqirib olish tartibini; shartnoma shartlarini kelishib olish chog‘ida unga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish imkoniyati hamda tartibini; tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish va ularga haq to‘lash shartlarini, shuningdek ular uchun taklif etilayotgan narxlarni (tariflarni); hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot resursida joylashtirilgan elektron hujjatga havola qilish yo‘li bilan shartnomaga kiritiladigan shartlarga doir ko‘rsatmalarni⁵. Ushbu talablarga rioya qilinmagan holda jo‘natilgan oferta haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Aksept uch xil usulda amalga oshirilishi mumkin: elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash nazarda tutiladigan elektron hujjat tarzida; elektron tijorat ishtirokchisining roziligi bildirilgan elektron xabar tarzida; ofertada ko‘rsatilgan shartlarni bajarishga doir harakatlarni bajarish orqali. Shu o‘rinda, elektron shartnomalarda ofertani olib turib javob bermaslik yoki stiker, smayliklardan foydalanish aksept hisoblanadimi degan savol vujudga keladi. Umumiy qoida bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (FK) 370-moddasi⁶ga binoan, sukut saqlash aksept hisoblanmaydi. Ya’ni, agar sizga biror taklif (oferta) kelgan bo‘lsa va siz unga javob bermasangiz, bu avtomatik ravishda shartnomaning tuzilganligini

⁵ O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-yil., 03/22/792/0870-son.

⁶ O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. O‘zbekiston qonunchiligi milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-111189>



anglatmaydi. Shartnoma tuzish uchun tomonlarning aniq va ixtiyoriy roziligi talab qilinadi. Sukut saqlash aksept hisoblanishi mumkin bo'lgan bir nechta istisnolar mavjud: agar qonun hujjatlarida yoki oldingi kelishuvlarda sukut saqlash aksept deb belgilangan bo'lsa, bu holatda shartnoma tuzilgan hisoblanishi mumkin. Masalan, ba'zi obuna xizmatlarida, agar muddat tugagandan so'ng xizmatdan voz kechmasangiz, shartnoma avtomatik ravishda uzaytirilishi belgilanishi mumkin. Agar tomonlar o'rtasida uzoq muddatli va muntazam ishbilarmonlik munosabatlari mavjud bo'lib, ularning amaliyotida sukut saqlash rozilikni bildirgan bo'lsa, bu ham istisno tariqasida aksept deb tan olinishi mumkin. Biroq, bu holatni isbotlash murakkab bo'lishi mumkin.

Stikerlar va smayliklar (emojilar) ko'pincha norasmiy muloqotda qo'llaniladi va ularni tartibga soluvchi qonunchilik hozirda mavjud emas. Ularning huquqiy kuchga egaligi va aksept hisoblanishi quyidagi omillarga bog'liq:

1. Muloqotning konteksti va tomonlarning niyati: asosiy e'tibor tomonlarning smaylik yoki stikerdan foydalanishda shartnoma tuzish niyati bor-yo'qligiga qaratiladi. Agar tomonlar oldindan bu kabi ifodalarni rozilik belgisi sifatida ishlatishga kelishib olgan bo'lsa yoki muloqotning umumiy konteksti smaylikning aniq rozilikni bildirayotganini ko'rsatsa, u aksept sifatida talqin qilinishi mumkin.

2. Yuridik aniqlikning yo'qligi: stiker va smayliklar ko'pincha ko'p ma'noli bo'lishi mumkin. Masalan, "bosh barmog'ini ko'tarish" smayligi "tushundim", "yaxshi" yoki "roziman" kabi turli ma'nolarni anglatishi mumkin. Bunday aniqlikning yo'qligi ularni yuridik jihatdan kuchli aksept deb tan olishni qiyinlashtiradi.

Elektron shartnomalarni tuzishda elektron oferta va akseptning qonunchilikka rioya qilgan shaklda va tartibda amalga oshirilishi shartnoma tuzilgan yoki tuzilmaganligini isbotlashda muhim ahamiyatga ega.



Elektron tijorat shartnomalarini tuzishda yuzaga keluvchi muammolarni oldini olish maqsadida, elektron tijorat qonunchiligini rivojlantirish bo'yicha bir qancha takliflarni keltirib o'tish mumkin. Avvalo, elektron imzolash mexanizmlarini kengaytirish va aniqlashtirish lozim. Hozirda O'zbekiston qonunchiligida asosan "elektron raqamli imzo" (ERI) tan olingan. Biroq, kundalik amaliyotda parol, bir martalik kod, SMS orqali tasdiqlash kabi oddiy elektron imzo turlari keng qo'llaniladi. Bu imzolarning ham ma'lum shartlar ostida (masalan, tomonlar kelishuvi, tizimning ishonchliligi) yuridik kuchga ega ekanligini qonunchilikda aniq belgilash va ularning tasdiqlash mexanizmlarini soddalashtirish zarur. Bu jarayon Yevropa Ittifoqining eIDAS reglamentiga o'xshash modelda amalga oshirilishi mumkin. Yevropa Ittifoqida eIDAS reglamenti (elektronic Identification, Authentication and Trust Services) elektron imzoning uch darajasini belgilaydi: oddiy, ilg'or va malakali⁷. Oddiy elektron imzolar (masalan, e-pochta tasdiqlari, shartlarni qabul qilish tugmasini bosish) ko'plab holatlarda qonuniy kuchga ega deb tan olinadi, ayniqsa tomonlar o'rtasida kelishuv mavjud bo'lsa. "Bosing-qabul qiling" shartnomalari (Click-wrap agreements) deyarli barcha davlatlarda tan olingan. AQShda Uniform Elektronic Transactions Act (UETA) va Elektronic Signatures in Global and National Commerce Act (ESIGN Act) kabi qonunlar elektron imzolarni qog'ozdagi imzolarga tenglashtiradi va turli turdagi elektron roziliklarni tan oladi⁸. Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlar ham elektron imzolarning turli shakllarini tan oluvchi va ularning yuridik kuchini belgilovchi qonunchilikka ega.

"Bosing-qabul qiling" (Click-wrap) va "saytda foydalanish" (Browse-wrap) shartnomalarini tan olish. Elektron tijoratda keng tarqalgan bu shartnoma turlari, ya'ni foydalanuvchining ma'lum tugmani bosishi yoki veb-saytdan foydalanishi orqali shartnoma

⁷ Yevropa Ittifoqining eIDAS reglamenti (Regulation (EU) No 910/2014 on electronic identification and trust services for electronic transactions in the internal market).

<https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32014R0910>

⁸ Meyer, J. (2016). The Legal Framework of e-Signatures and e-Contracts: The European eIDAS Regulation. Journal of Internet Law, 19(11), 3-10



shartlariga rozilik bildirishi holatlarini qonuniy tan olish va ularning yuridik kuchini belgilash lozim. Bunda shartnoma shartlarining foydalanuvchiga aniq va tushunarli tarzda taqdim etilishi asosiy shart bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-yil., 03/22/792/0870-son.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. O'zbekiston qonunchiligi milliy bazasi.
<https://lex.uz/docs/-111189>
3. Копачев А.А. "Электронная коммерция как фактор инновационного развития деятельности предприятия, Автореф." – Санкт-Петербург, 2009. – С.6.
- 4.Медведева В.А. "Электронная коммерция предпринимательской деятельности". Автореф дисс... - Москва, 2004.- С.10.
5. Solove, D. (2018). The Digital Person and the Future of Privacy Law. California Law Review, 106(6), 1373-1430.
6. Yevropa Ittifoqining eIDAS reglamenti (Regulation (EU) No 910/2014 on electronic identification and trust services for electronic transactions in the internal market).
<https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32014R0910>
7. Meyer, J. (2016). The Legal Framework of e-Signatures and e-Contracts: The European eIDAS Regulation. Journal of Internet Law, 19(11), 3-10